

**MULOQOTCHANLIK O‘SMIRLAR IJTIMOYILASHUVINING  
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK RIVOJLANISHI SIFATIDA**  
**Sobirov Axror Burxonovich, Jizzax davlat pedagogika universiteti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘smirlar ijtimoiylashuvida muloqotning o‘rni hususida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘smir, ijtimoiylashuv, o‘tish davri, xulq-atvor.

O‘spirinlik davri ijtimoiylashuvning yakunlovchi bosqichidir. Bu davrga asosan 13-19 yoshlarni kiritish mumkin. Demak, ijtimoiylashuv jarayonida asosan qadriyatlar, ijtimoiy normalar o‘smirlikda tarkib topar ekan. Bu borada qadriyatlarning o‘rni beqiyos bdir, ushbu qadriyatlar oiladan boshlanishi bilan xarakterlanadi. Ijtimoiylashuv jarayonida kattalardan ibrat olishning psixologik mexanizmlari namoyon bo‘ladi. Ibrat olish kiynishdan to kasb tanlashgacha bo‘lgan hodisalarni qamrab olgan. Ijtimoiy muhitning har xil ta‘siri natijasida o‘smirlarning psixik taraqqiyotida real voqelikning borgan sari chuqurroq, faol, amaliy aks ettirishidan iboratdir. Ularning ijtimoiylashuviga boshqa omillarning ham ta‘siri borligi kuzatilmogtsa. Bu omillarning ta‘sir darajasi, shakllari turli davrlarda ayricha va o‘ziga xos bo‘lishi mumkin. Masalan, bundan 7-8 yil avval o‘smirlarning ijtimoiylashuviga internet tarmoqlari deyarli ta‘sir o‘tkazmagan bo‘lsa, hozirgi kunda uning ta‘siri yetakchi o‘rinlardan biriga aylanmogda. Shuningdek, o‘smirlar ijtimoiylashuviga jahonda kechayotgan globallashuv jarayoni ham sezilarli ravishda ta‘sir o‘tkazmogda. Globallashuv jarayonida millatlararo, davlatlararo, madaniyatlararo muloqotning kuchayishi aloqa vositalari (uyali telefon, internet, televidenie, kompyuter o‘yinlari va hokazo)ning tez rivojlanishi bilan bogliq.

O‘smirlarning ijtimoiylashuv jarayoniga psixofiziologik o‘zgarishlar ta‘sir etmaydi, deyish noto‘gri. Uning fiziologik o‘zgarishi (jinsiy yetuklik) alohida psixologik siljish jarayonini ajratib beradi: bu hol unda boshqa jinsga bo‘lgan qiziqish, tajovuz, oqibatini o‘ylamasdan tavakkal qilish, mustaqil bo‘lishga intilishlarini taqozo etadi. Ichki psixologik mexanizmlar sirasida bu qiziqishlar, intilishlar alohida o‘rin tutadi. Ijtimoiylashuv jarayonida o‘smirlarning sanhatga, yangiliklarga, obro‘-e‘tiborga ahamiyatli bo‘lishlari, bir tomondan, ularning mustaqil va faoliyatda erkin bo‘lishga intilishlarini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan ushbu madaniyat vositalarining ta‘sir kuchi yoshlarda muhim o‘rin egallashlarini tasdiqlaydi. Rossiyada bu holatni o‘rganuvchi olimlarning kuzatishlaricha, o‘smirlikda uch xil asosiy negativ pozitsiyalar yuzaga kelishi mumkin: bu giyohvand moddalarga qiziqish, zo‘rlash va jarohat yetkazishdir. Aynan shuning uchun o‘smirlik davrini «o‘tish davri», «qiyin bosqich», deb atalishi bejiz emas. Uning mazmun mohiyati o‘smirning xulq-atvoridagi o‘zgarishlar bilan belgilanadi: kichik yoshidan ota-onaga qaram, bo‘ysunuvchan bola sirli, o‘ziga ishongan, mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlariga ega o‘smirga aylanadi. Ilgari ota-ona ko‘rsatmasi, dunyoqarashi bilan ish tutadigan bo‘lsa, endi u ikki xil

dunyoni sarhisob qila boshlaydi: o'smirning qadriyatlar tizimiga parallel ravishda yangicha qarashlar majmui vujudga keladi. U bir tomondan ota-ona ko'zi bilan o'ziga bola sifatida qarasa, ikkinchi tomondan tengdoshlarining dunyoqarashi, fe'l-atvori xatti-harakatlarida aks eta boshlaydi. Uning shaxs bo'lib shakllanish fundamenti bu davrda yakun topib, dunyoqarashning yukori bosqichlariga intilishi kuchadi. Uzlighi anglash «Men» belgisi (simvoli) ota-ona hayotidan, do'stlari, sotsiumda o'z o'rnini egallashga yordam beradi. SHuning bilan birga, hayot mazmuniga baho berishda qadriyatlar izlash hodisalarini ham izlab topishga harakat qiladi va bu jarayon orqali «Men» belgisiga taalluqli bo'lgan ijtimoiy belgilar, ijtimoiy muhitni o'z tasavvurida shakllantiradi. Shuningdek, o'smirlar atrofdagilarga nisbatan negativ baho berishga ham moyildir, odamlarning kiyinishi, tashqi ko'rinishi, o'zini tutishi, xatti-harakatlariga nisbatan munosabatlarini bildiradi. Uzining fikri bilan ish tutishga, o'ziga nima mahqul bo'lsa shuni amalga oshirishga harakat qiladi. O'smirlar ijtimoiylashguvining qiyinchiliklari uch xil ko'rinishga ega:

- o'ziga yuqori baho berish (qahramonlik ko'rsatish, hammaga tanilish)ni xohlaydi, lekin ijtimoiy mavqei pastligi bilan;

-o'smir fikri bilan ota-onaning eskicha fikrlashi, madaniyati to'g'ri kelmasligi (u ota-onaga o'smir yoshida ham bola bo'lib ko'rinishi), lekin o'smir psixofiziologik jihatdan katta bo'lib qolganligi bilan;

-tengdoshlari fikri bilan o'smirning o'zigagina xos bo'lgan mustaqil qadriyatlarini to'g'ri kelmasligi bilan ifodalanadi,

Tengdoshlar guruhi bir xil yoshdagi bolalarning do'stona kompaniyasidir. Bag'zi madaniyatlarda, ayniqsa, kichikroq ang'anaviy jamiyatlarda tengdoshlarning guruhlari yosh turkumlariga qarab shakllanadi. Har bir avlod o'z huquq va majburiyatlariga ega, bular yosh ulg'aygan sari o'zgarib boradi (yoshga qarab turkumlanish, odatda o'gil bolalarga taalluqli). Individlarning bir yosh turkumidan ikkinchisiga o'tishi odamda o'ziga xos rasm-rusmlar bilan nishonlanadi. Taxminan bir xil yoshdagi tengdoshlarning do'stlik munosabatlari odatda butun umr davomida saklanib qoladi.

Tengdoshlar bilan munosabatlar ko'pincha insonning butun umri davomida o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Bu, ayiiqsa, individlar bitta norasmiy bir xil do'stlar guruhita ega bo'ladigan kichik aholi yashash punktlari uchun xos. Bunday bo'lmagan taqdirda ham tengdoshlar bilan munosabatlar bolalik va o'smirlik davrlaridan keyin ham sezilarli ta'sir o'tkazadi. Ish joylarida yoki boshqa vaziyatlarda bir xil yoshdagi odamlarning norasmiy guruhlari individ odatlari va pozitsiyasining shakllanishida juda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. O'smirlar ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi yana bir omil bu ommaviy axborot vositasidir.

«Ijtimoiylashuv» degan tushuncha o'smir shakllanishi muammosining o'ziga xosligini belgilovchi asos bo'lib hisoblanadi. J.Aronfridning fikricha, ijtimoiylashuv faqat rag'batlantirishga tayanishi mumkin emas. Ijtimoiylashuvning buzilishidagi asosiy sabablar ichida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

a) kattalarning o‘smirga shaxs sifatida emas, balki ta’sir obhakti sifatidagi munosabati. Ba’zi kattalarning xulqi o‘smirda uning o‘zida mavjud bo‘lmagan sifatlarini shakllantiradi. Bu esa unda kattalarning maslahatlarini noto‘g‘ri qabul qilishiga sabab bo‘ladi. O‘smir kattalar harakatida, talablarida o‘zlari amal qilmaydigan yoki o‘zlariga mos bo‘lmagan xatti-harakatlarni ko‘rib sezsalor, ulardan qocha boshlaydilar. Ular o‘zlarini aldamaydigan, teng ko‘radigan insonni izlay boshlaydilar;

b) juda ko‘p bolalar uchun oila, afsuski, tajovuzkor axloq va psixik jarohatni keltirib chiqaruvchi vaziyatlarning asosiy manbai hisoblanadi.

O‘smir o‘zi yashayotgan oilani boshqa oilalar bilan tengdoshlarining gaplari, atrofidaqilarning fikri bo‘yicha solishtiradi, har doim ham to‘g‘ri bo‘lmagan xulosalar chiqaradi. Garchi o‘zi oiladagi vaziyatni yaxshilash uchun biror narsa qilishga qodir bo‘lmasa-da, kurashadi. O‘smir atrofidaqi sinfdoshlari, tengdoshlari bir muncha huzur-xalovatli sharoitlarda yashayotganlarini ko‘radi, bu narsa ham o‘smirning rivojlanishida ma’lum bir ta’sirni ko‘rsatmay qolmaydi. Demak, hali to‘liq shakllanib ulgurmagani o‘smir tushunchasida qarama-qarshiliklar paydo bo‘ladi. Bu vaqtda o‘qituvchilarning o‘smirni oilaviy sharoiti, mijozi, rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olmay qilgan muomalalari ham o‘smir xulqida keskin burilishlar yasashga olib kelishi mumkin;

v) o‘smir hayotining sharoitlari (etimlik, jinoyatchilik, jismoniy va psixik zaifliklar). Jinoyatchilikning katta foizi hayot sharoiti o‘ta ogir bo‘lgan o‘smirlar, ya’ni jinoyatchi ota, jinoyatchi ona yoki har ikkovi muntazam spirtli ichimliklar istehmol qiluvchi, janjalkash oilalarning bolalari jismoniy va psixik ogishi bo‘lganlar hisobiga to‘g‘ri keladi. Ko‘p hollarda bunday o‘smirlar kattalar va qarindoshlari nazoratidan chetda qoladilar, hech narsa bilan band bo‘lmaydilar va buning oqibatida yomon ta’sirlarga beriluvchan bo‘ladilar. Ular o‘zlarining harakatlari bilan jamiyatning, yaqinlarining ehtiborlarini jalb etmoqchi bo‘ladilar, o‘zlari kirgan doirada esa o‘zlarini shaxs sifatida namoyish etadilar.

«Shaxs ijtimoiylashuvi» tushunchasini kirib kelishida turli soha olimlari ham g‘oyalarini ilgari surishgan. Yu.A.Aleksandrovskiy, V.N.Shubkin larning imliy ishlarida «Ijtimoiy adaptatsiyaning mahnosi, shakl va omillari», «Rossiyaning yangicha ijtimoiy-iqtisodiy jarayoniga aholining ijtimoiy adaptatsiyasi» mavzularida ilmiy talqin etilgan. Shuningdek, shaxs ijtimoiylashuvi muammolarini ochib berishga harakat qilgan G‘arb olimlari O.Brim, T.Parsons, R.Kollinz, T.Djaster, E.Erikson, R.Gould, M.Vead va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Ijtimoiy moslashuvdagi filogenetik yondashuv asoschisi rus olimi I.N.Aksyonov aniqlashicha, bu ijtimoiylashuv jarayoni uch bosqichda kechadi:

- 1) shaxsning o‘zligini anglashi;
- 2) jamoaviylik qoidalarni o‘rganishi;
- 3) ijtimoiylashuvning amaliy ahamiyat kasb etishi.

Bu yondashuvnyng dastlabki «nominatsiya bosqichi», ikkinchisi «kasbiy bosqich» va uchinchisi «universal bosqich» deb nomlangan. Olimning bu fikrini hisobga oladigan bo‘lsak, sotsiumning tarkibiy qismlarida o‘smirning

ijtimoylashuvini anglash, o'rganish va amaliyotga qo'llash tarzida kechadi. Zero, o'smirning oilada, o'quv, mehnat va jamoalar guruhlarida ijtimoylashib borishi uch muhim xususiyatni - bilish, o'rganish va amal qilishni qamrab oladi. Sotsiumning o'smirlarga bunday ta'sir etish yo'li davomiylik qonuniyatiga asosan kechadi. Unga ko'ra o'smir ijtimoiy bilim, ijtimoiy axloq va ijtimoiy faoliyatni hosil qilishi uchun butun hayoti davomida rivojlanib boradi.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

- 1.Абрамова Г.С. Возрастная психология. Москва, «Академический проект». Москва. 2001.
2. Акимова М.К. К.М.Гуревич. Психологическая диагностика. Москва. 2005.
3. Бурменская Г.В.,Карабанова О.А., Лидерс А.Г. Возрастно-психологическое консультирование.Москва, МГУ, 1990.
4. Каршибаева, Г. А., & Эшмуратов, О. Э. (2018). Факторы суицидального поведения, влияющие на формирование подросткового поведения. Молодой ученый. (49). 235-237.
- 5.Каршибаева. Г. А. Суицидальное поведение-сложное социально-психологическое явление. In Психологические науки: теория и практика (pp. 37-39).
- 6.Каршибаева. Г. А.,Н.Абдукадырова, Н. Х. Психологические особенности педагогических конфликтов. In Психология: традиции и инновации (pp. 65-68).
- 7.Каршибаева. Г. А.Психопрофилактические меры по предотвращению самоубийств у подростков. Молодой ученый, (49), 233-235.
- 8.Каршибаева. Г. А.Теоретическая основа проблемы психологических особенностей подростков с суицидальным поведением. Молодой ученый, (49), 230-233.
- 9.Каршибаева. Г. А. Норбекова. Б. Ш. & Туракулов. Л. Т. Суицид-это не просто способ обратить на себя внимание. European journal of education and applied psychology. (2).
- 10.Каршибаева. Г. А. Самоубийство в ряду других социальных явлений. Молодой ученый. (5). 581-584.
- 11.Каршибаева. Г. А. Абдукадырова. Н. Х. & Абдукаримова. Э. И.Педагогические конфликты-неизбежные спутники школьной жизни. In Аспекты и тенденции педагогической науки (pp. 115-117).
- 12.Каршибаева. Г. А.Некоторые факторы преодоления суицидальных действий среди подростков. In Психология: традиции и инновации (pp. 68-71).
- 13.Karshiboeva. G. Характеристики мотивационных потребностей подростков с суицидальным поведением. EurasianUnionScientists. 1(10 (79). 48-49.
- 14.Karshibayeva. G. Diagnostics and Preventive Measures against the Suicidal Behavior of Teenagers. YOUNG SCIENTIST USA. 117.

15. Majidov, J. (2021). SHAHSGA TIZIMLI ENDAШИШДА QADRIYATLARNING URNI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (3). Извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4325>
16. Majidov, Jasur Vaxtiyarovich (2022). SOTSIAL INTELLEKT VA UNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (2), 608-613.
17. Majidov, J. (2022). IKTIDORLIK MUAMMOSINING PSIXOLOGIK TENDENCIYALARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(7). Извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5762>
18. Majidov, J. (2022). USMIRLIK DAVRIGA XOS SUICIDAL XULQNING AYRIM SABABLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(7). Извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5766>
19. Majidov, J. (2021). ESHLARNING OILAVIY XAET XAQIDAGI TASAVVURLARI VA OILAVIY XAETDAN QONIQISH UYFUNGILIGI MASALALARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 1(1).
20. Jасur, M. (2022). GENDER USTANOVKALARI VA IJTIMOYILASHUV JARAENINING UZIGA XOSLIGI. *Involta Scientific Journal*, 1(6), 69-77.
21. Jасur, M. (2022). GENDER USTANOVKALARI VA IJTIMOYILASHUV JARAENINING UZIGA XOSLIGI. *Involta Scientific Journal*, 1(6), 69-77.
22. Majidov Jасur, & Xamdamov Xaydarbek. (2022). SHAHSGA STRUKTURAVIY ENDAШИШДА QADRIYATLARNING URNI. *Involta Scientific Journal*, 1(7), 138-148. Retrieved from <https://involta.uz/index.php/iv/article/view/255>
23. Ziyadullayeva, M., & Majidov, J. (2022). KEKSALIK DAVRINING BIOLOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot*, 1(28), 32-35.
24. Yo'ldoshev, S., & Jo'lmurodov, O. (2023). PSIXOLOGIK SALOMATLIK QADRIYAT SIFATIDA. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(3), 3-7. Извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8481>
25. Yo'ldoshev, S., & Fayzullayeva, M. (2023). STRESSNI KELIB CHIQUISH SABABLARI VA ZAMONAVIY PSIXOLOGIK YECHIMLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(3), 8-14. Извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8482>